Ikkinchidan, aktivlar sifati va kredit xatarlarini modellashtirish. Ushbu yo'nalishda bank balansidagi muammoli kreditlar ulushi, ularning sifat tarkibi hamda ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash zaxiralari ko'lamini empirik tarzda baholandi [4]. Chakana kreditlash xatarlarini o'lchashda makroprudensial siyosatning asosiy instrumentlari bo'lgan kredit summasining garov qiymatiga nisbati va qarzga xizmat ko'rsatishning daromadga nisbati ko'rsatkichlarining taqsimoti tahlil qilindi [9], [11].

Uchinchidan, likvidlilik va barqaror moliyalashtirish ko'rsatkichlari. Ushbu bo'limda Bazil III talablari asosida likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti (LCR — Liquidity Coverage Ratio) va sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyenti (NSFR — Net Stable Funding Ratio) dinamikasi o'rganilib, banklarning favqulodda qisqa muddatli shoklarga va uzoq muddatli moliyalashtirishdagi tarkibiy nomutanosibliklarga bardoshlilik matematik hisob-kitoblar asosida ko'rib chiqildi [4], [5].

To'rtinchidan, bank tizimining shoklarga bardoshlilikini chuqurroq va ehtimoliy anglash maqsadida Markaziy bank tomonidan qo'llaniladigan ilg'or makro stress-test modellarining natijalari ilmiy talqin qilindi. Xususan:

Tizimli shartli xatarlar tahlili modeli. Ushbu model orqali bank aktivlarining bozor qiymati va bank majburiyatlari o'rtasidagi munosabat tahlil qilinib, har bir tijorat banki uchun defoltgacha bo'lgan masofa hamda defolt ehtimolligi kabi ko'rsatkichlar baholandi

Xatarlarni hisobga olgan holdagi o'sish modeli. Iqtisodiy sikllar va moliyaviy sharoitlarning yomonlashuvi ssenariylarida kelgusi iqtisodiy pasayish ehtimolini hisoblashda ushbu model qo'llanilib, 5 foizlik ehtimollik kvantili ostida iqtisodiy o'sishning eng noqulay ko'rsatkichlari prognoz qilindi [4].

Stress-test jarayonlari ikki xil — asosiy va xatarli ssenariylarga ajratilgan holda o'rganilib, bank defoltning tizimga tarqalish (contagion) xatari hamda eng yirik depozitorlar mablag'larining chiqib ketishi natijasida yuzaga keladigan likvidlilik inqirozlari simulyatsiya qilindi [4], [5].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari faoliyati mamlakatdagi umumiy makroiqtisodiy muhit bilan bevosita uzviy bog'liqdir. Olingan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2025-yil va 2026-yilning birinchi choragi davomida O'zbekistonda makromoliyaviy sharoitlar mo'tadillashish va ma'lum darajada yengillashish tendensiyasiga ega bo'ldi. Bunga ichki valyuta bozorida taklifning barqarorlashuvi, milliy valyutaning qadrsizlanish sur'atlarining pasayishi va inflyatsion bosimning jilovlanishi sabab bo'ldi. 2025-yilda milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan 2,1 foizga mustahkamlangani ham ushbu ijobiy tendensiyani tasdiqlaydi.

Statistik hisobotlarga ko'ra, 2025-yil yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining yillik real o'sish sur'ati yuqori darajada — 7,0–7,5 foiz oralig'ida shakllandi. Ayrim baholashlarda bu ko'rsatkich 7,2 foiz deb qayd etilgan. Iqtisodiy o'sishning bunday barqaror sur'ati, birinchi navbatda, ichki iste'mol talabining kuchayishi, investitsion faollikning oshishi va eksport hajmining kengayishi hisobiga ta'minlandi. Inflyatsiya darajasi esa pasayish tendensiyasini namoyon etib, yil yakunida 8 foiz atrofida shakllanishi prognoz qilindi.

Ushbu ijobiy makroiqtisodiy fon tijorat banklari faoliyati uchun qulay muhit yaratdi hamda moliya tizimidagi umumiy tizimli xatarlar ko'lamining qisqarishiga olib keldi. Moliyaviy sharoitlar indeksining yaxshilanishi bank sektoriga barqaror likvidlilik oqimining kirib kelishiga xizmat qildi. Shu bilan birga, bank tizimi jami aktivlarining YalMga nisbati barqaror o'sib bormoqda, bu holat mamlakat iqtisodiyotida moliyaviy vositachilik ko'lamining chuqurlashayotganidan va moliya sektorining real sektor korxonalarini moliyalashtirishdagi ahamiyati ortayotganidan dalolat beradi.



Tijorat banklarining kapital bazasi kutilmagan iqtisodiy shoklarni yutishda va defolt xavfining oldini olishda eng asosiy prudensial himoya yostig'i vazifasini o'taydi. O'tkazilgan empirik tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston bank tizimida kapital yetarliligi ko'rsatkichlari xalqaro Bazel qo'mitasi va milliy regulyator tomonidan belgilangan minimal me'yorlardan muntazam ravishda xavfsiz darajada yuqori bo'lib kelmoqda. 2025-yil yakunlari bo'yicha bank tizimining umumiy kapital yetarliligi koeffitsiyenti 17,4–18,3 foizni, I darajali kapital yetarliligi esa 14,3–15,2 foizni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar Bazel III talablariga to'liq mos kelishini va bank tizimining tashqi shoklarga nisbatan yuqori darajada bardoshli ekanini ko'rsatadi.

Aktivlar sifati ko'rsatkichlari ham ijobiy tendensiyani namoyon etdi. 2025-yil yakunida muammoli kreditlar ulushi jami kredit portfelining 3,8 foizini tashkil etib, xalqaro standartlar nuqtayi nazaridan nisbatan past darajada saqlanib qoldi. Bu esa kredit portfelining sifati yaxshilanayotganini va banklar tomonidan risklarni boshqarish tizimlari takomillashayotganini anglatadi.

Likvidlilik ko'rsatkichlari bo'yicha ham bank tizimi yuqori natijalarni qayd etdi. Xususan, likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti 195 foizni, sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyenti esa 117 foizni tashkil etdi. Mazkur natijalar tijorat banklarining qisqa va uzoq muddatli moliyaviy majburiyatlarni bajarish imkoniyatlari yuqori ekanini hamda favqulodda likvidlilik inqirozlariga nisbatan yetarli darajada tayyorligini ko'rsatadi.

Bank tizimining rentabellik ko'rsatkichlari ham ijobiy bo'lib, 2025-yilda kapital rentabelligi (ROE) 10,8 foizni, aktivlar rentabelligi (ROA) esa 2 foizni tashkil etdi. Bu esa banklarning moliyaviy natijalari barqarorligini va ular tomonidan yaratilayotgan qo'shimcha qiymat darajasining yuqori ekanini ko'rsatadi. Stress-test natijalari esa, hatto noqulay ssenariylar ostida ham, bank tizimi o'zining moslashuvchanligi va barqarorligini saqlab qolishini tasdiqladi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston bank tizimi bo'yicha kapital yetarliligi ko'rsatkichlarining qiyosiy dinamikasi (2024-2026 yy.)¹

Ko'rsatkichlar	01/01/2024	01/01/2025	01/07/2025	01/01/2026
I darajali asosiy kapital (CET1) miqdori (mlrd. so'm)	84,910.8	102,617.7	117,492.1	135,339.1
Jami regulyativ kapital miqdori (mlrd. so'm)	105,914.5	124,793.2	139,442.1	165,968.8
I darajali kapital yetarliligi ko'rsatkichi (Tier 1) (%)	14.1%	14.3%	14.6%	14.7%
Jami regulyativ kapital yetarliligi ko'rsatkichi (CAR) (%)	17.5%	17.4%	17.4%	18.3%
Bank sektorining o'rtacha leveraj koeffitsiyenti (%)	-	-	13.2%	-

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2026-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston bank tizimining jami regulyativ kapital yetarliligi ko'rsatkichi (CAR) 18,3 foizga yetgan. Ushbu ko'rsatkich Bazel III doirasida o'rnatilgan umumiy xalqaro minimal talablardan hamda O'zbekiston Markaziy banki tomonidan milliy banklar uchun belgilangan 13 foizlik minimal me'yordan (konservatsiya buferini hisobga olgan holda) sezilarli darajada yuqoridir[6]. Shuningdek, sifat jihatidan eng muhim hisoblangan I darajali asosiy kapital (CET1) ko'rsatkichi 14,7 foiz atrofida barqarorlashgan bo'lib, uning tarkibida asosan banklarning ustav kapitali va taqsimlanmagan foydasi ustunlik qiladi.

I darajali kapital monandlilik koeffitsiyentining yillik oshishida, asosan, tavakkalchilikka tortilgan aktivlar zichligining pasayishi ijobiy rol o'ynagan [4]. Banklarning aktivlar bazasi tez sur'atlarda, ya'ni yillik 23 foizgacha o'sayotgan bo'lsa-da, ularning sifatli kapital qo'yilmalari orqali qo'llab-quvvatlanishi tizimning to'lov qobiliyatini ta'minlamoqda. Biroq e'tibor qaratish lozimki, Markaziy bank tomonidan belgilangan mahalliy tizimli ahamiyatga molik banklarda (Domestic Systemically Important Banks — D-SIB, jami 7 ta yirik bank) kapital yetarliligi tizimning boshqa xususiy qismiga nisbatan biroz pastroq darajada shakllanmoqda. Bunga sabab ushbu banklarning iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirishdagi va yirik davlat dasturlaridagi ishtirokining yuqoriligidir [12].


Bank sektorining aktivlari sifatini tahlil qilish tijorat banklarida risk-menejment tizimi samaradorligini va bozor shartlariga moslashuvchanlikni baholashning markaziy elementi hisoblanadi. Bank tizimi jami aktivlarining mutlaq asosiy qismini barqaror ravishda kredit portfeli tashkil etmoqda. 2026-yil boshiga kelib ushbu ko'rsatkich taxminan 63,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, oldingi yillarda u 65 foizgacha yetgan [4], [10].

2025-yil davomida va 2026-yil boshida umumiy muammoli kreditlar (NPL — to'lov muddati 90 kundan oshgan kreditlar) hajmi regulyatorning qat'iy nazorati ostida saqlanib, ularning jami kreditlardagi ulushi 3,8 foizdan 4,5 foizgacha bo'lgan nisbatan past oraliqda tebranib turdi[4]. Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda ushbu

1 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Statistik byulletenlari va Moliyaviy barqarorlik sharhlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.[4], [10]



ko'rsatkich Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasining boshqa davlatlaridagi o'rtacha mediana qiymatlariga yaqin yoki undan ham qulayroq darajada saqlanmoqda [5] (1-rasm).



1-rasm. Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL)²

Muammoli kreditlarning sifat tarkibi tahlil qilinganda, ularning taxminan 40 foizi “qoniqarsiz”, 35 foizi “shubhali”, qolgan qismi esa “umidsiz” deb tasniflangan aktivlar hissasiga to'g'ri kelishi aniqlandi [4]. Bu tendensiya “qoniqarsiz” kreditlarning amalda qaytarilish yoki restrukturizatsiya qilinish ehtimoli nisbatan yuqori ekanligini hisobga olganda, banklar uchun kutilayotgan sof real yo'qotishlar hajmi nominal NPL ko'rsatkichidan biroz pastroq bo'lishini anglatadi.

Ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun shakllantirilgan maxsus zaxiralarning muammoli kreditlarni qoplash koeffitsiyenti barqaror ravishda o'sib, 49–52 foiz darajasida mustahkamlangan [4]. Zaxiralar chegirilgandan keyingi NPLning banklar regulyativ kapitaliga nisbati barqarorlashgan bo'lib, bank tizimi barqarorligiga bevosita jiddiy tahdid tug'dirmaydi.

Biroq tahlillar shuni ko'rsatadiki, kreditlashning ayrim segmentlarida, xususan, aholiga ajratilayotgan chakana kreditlar — mikroqarzarlar va avtokreditlar doirasida xatarlarning konsentratsiyasi hamda kredit sifati pasayishi kuzatilmoqda (2-jadval).

2-jadval. Chakana kreditlar bo'yicha makroprudensial xatar ko'rsatkichlari (2025 y. I yarim yilligi holatiga)³

Kredit turi	NPL ulushi segmentda (%)	O'rtacha LTV ko'rsatkichi (%)	DSTI ko'rsatkichi > 50% bo'lgan qarzarlar ulushi (%)
Mikroqarzarlar	4.4%	Qo'llanilmaydi (garovsiz)	31% dan yuqori
Avtokreditlar	O'rtacha tizimdan yuqori	77% (ko'p qismi 75% dan yuqori)	Pasayib bormoqda
Ipoteka kreditlari	Barqaror	78% (38% holatda LTV > 80%)	31%

Mikroqarzarlar segmentida NPL ulushi jami bank kreditlari bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan sezilarli darajada yuqori bo'lib, 4,4 foizgacha yetgan [4]. E'tiborli jihati shundaki, mikroqarzarlar tarkibida muammoli kreditlarning qariyb 57 foizi qisqa vaqt ichida “shubhali” va “umidsiz” toifaga o'tgan. Bu holat banklardagi kredit skoringi va andarrayting (underwriting) jarayonlarida qarz oluvchilarning real to'lov qobiliyatini baholashni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi [4].

2 O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki Statistika Byulleteni 2025 asosida muallif tomonidan tayyorlandi

3 Manba: Markaziy bankning Moliyaviy barqarorlik sharhi ma'lumotlari asosida hisoblangan.[4]



Shuningdek, qarzdorlarning bir vaqtning o'zida bir nechta bank yoki mikromoliya tashkilotlaridan parallel ravishda qarz olishi (cross-borrowing) holatlari sezilarli darajada oshgan. 2025-yil o'rtalaridagi so'rovnomalarga ko'ra, bankdan qarz olganlarning 47 foizida bittadan ortiq faol kredit shartnomasi mavjud [4].

O'zbekiston tijorat banklarining likvidlilik holati yuqori darajada saqlanib qolmoqda va xalqaro bozorlardagi moliyaviy noaniqliklar fonida ham likvidlilik risklari muvaffaqiyatli boshqarib kelinmoqda (3-jadval).

3-jadval. Bank tizimining likvidlilik va moliyalashtirish ko'rsatkichlari dinamikasi (2025 y.)⁴

Ko'rsatkich nomi	2025-yil I chorak	2025-yil II chorak	Bazel III minimal talabi
Likvidlilikni qoplash me'yori (LCR)	189.4%	195.0%	100%
Sof barqaror moliyalashtirish me'yori (NSFR)	113.8%	117.0%	100%
Jami aktivlarda yuqori likvidli aktivlar ulushi	16.7%	17.6%	Qo'llanilmaydi
Kreditlarning depozitlarga nisbati (Loan-to-Deposit)	172.7%	161.8%	Qo'llanilmaydi

3-jadval ma'lumotlariga ko'ra, qisqa muddatli likvidlilik xavfini aks ettiruvchi LCR (Liquidity Coverage Ratio) ko'rsatkichi barqaror o'sib, 195 foizni tashkil etmoqda [4]. Bu tijorat banklari kelgusi 30 kungi sof pul chiqimini qoplash uchun xalqaro standart talab qilganidan qariyb ikki baravar ko'p yuqori likvidli aktivlarga (asosan, naqd pul, Markaziy bankdagi vakillik hisobvaraqlari va davlat qimmatli qog'ozlari) ega ekanligini isbotlaydi. O'z navbatida, bank moliyalashtirish bazasining tarkibiy barqarorligini belgilovchi NSFR (Net Stable Funding Ratio) ko'rsatkichi 117 foiz darajasida bo'lib, banklarning uzoq muddatli aktivlari asosan barqaror uzoq muddatli manbalar — kapital, uzoq muddatli depozitlar va xalqaro kredit liniyalari hisobidan qoplanayotganini ko'rsatadi [4]. Jami bank aktivlari tarkibida yuqori likvidli aktivlar ulushining 18 foizdan oshishi likvidlilik zaxiralarning miqdoriy va sifat jihatdan yaxshilanganini aks ettiradi [5].

Shunga qaramay, moliyalashtirish bazasi tarkibida diqqatni tortuvchi ayrim tizimli zaifliklar mavjud. O'zbekiston bank tizimida majburiyatlar tarkibida aholi va korporativ mijozlar depozitlarining ulushi ortib borayotgan bo'lsa-da (kreditlarning depozitlarga nisbati 172 foizdan 161 foizgacha yaxshilangan), depozitlarning konsentratsiyasi yuqori darajada qolmoqda [4]. Xususan, milliy valyutada jalb qilingan depozitlarning 19 foizi, xorijiy valyutadagi depozitlarning esa 5 foizi eng yirik depozitorlar hissasiga to'g'ri keladi [5]. Bu xatarli ssenariylarda sanoqli yirik korporativ depozitorlar tomonidan mablag'larning birdaniga olib chiqib ketilishi holatida ayrim o'rta va kichik banklarda keskin likvidlilik tanqisligini keltirib chiqarishi mumkin.

Rentabellik darajasi bank sektorining iqtisodiy shoklarga qarshi mustaqil ravishda qo'shimcha kapital generatsiya qilish qobiliyatining asosiy o'lchovi hisoblanadi. 2025-yil yakunlari bo'yicha e'lon qilingan dastlabki hisobotlarga ko'ra, O'zbekiston bank tizimi tarixiy yuqori — jami 1,24 milliard AQSh dollari miqdorida sof foyda ko'rishga muvaffaq bo'ldi [13]. Foyda ko'rsatkichining bunday o'sishi bevosita ROA va ROE ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatdi. Tijorat banklarining aktivlar rentabelligi (ROA) 2,0–2,2 foiz, o'rtacha kapital rentabelligi (ROE) esa 10,8–12,4 foiz oralig'ida shakllandi [5]. Xususiy tarmoqning ayrim yetakchi banklarida ROE ko'rsatkichi hatto 25 foizdan yuqori darajaga yetdi [14]. O'zbekiston Milliy banki, SQB va Kapitalbank kabi yirik banklar foyda generatsiya qilish bo'yicha sektor yetakchilari qatorida e'tirof etildi [15].

Daromadlilikning asosiy drayveri sifatida nafaqat an'anaviy sof foizli daromadlar (kredit va depozit stavkalari o'rtasidagi marja), balki sof foizsiz daromadlarning — tranzaksion xizmatlar, valyuta ayirboshlash operatsiyalari, xalqaro hisob-kitoblar va komissiya to'lovlarining keskin o'sishi xizmat qildi [4]. Statistika shuni ko'rsatadiki, 2025-yilda O'zbekistonda xorijiy valyuta operatsiyalari (sotib olish va sotish) bo'yicha faqat chakana savdo hajmining o'zi 33,6 milliard dollarga yetib, banklarning xizmat ko'rsatishdan oladigan komissiya daromadlarini mutlaq miqdorda oshirgan [16]. Shunday bo'lsa-da, raqamlashtirish bilan bog'liq operatsion xarajatlar va yuqorida qayd etilgan chakana kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar uchun zaxiralar shakllantirish xarajatlarining ortishi umumiy rentabellik ko'rsatkichining yanada yuqori sur'atlarda oshishini cheklab turuvchi omillardan biri bo'ldi [4].

Markaziy bank tomonidan davriy ravishda o'tkaziladigan tizimli makro stress-test natijalari bank sektorining turli xarakterdagi ehtimoliy shoklarga tayyorgarlik darajasini matematik va ekonometrik modellar asosida aks ettiradi. Tahlillar asosiy va xatarli ssenariylar asosida, asosan, to'lov qobiliyati va likvidlilik yo'nalishlarida amalga oshirildi [4], [5].

4 Manba: Markaziy bank ma'lumotlari asosida shakllantirilgan.[5]



Xatarli ssenariyning konseptual shartlari sifatida global iqtisodiy faollikning pasayishi, xomashyo narxlarining keskin o'zgarishi, mintaqaviy geosiyosiy omillarning kuchayishi va ularning natijasida ichki makroiqtisodiy o'sishning pasayishi, milliy valyuta qadrsizlanishi hamda ko'chmas mulk narxlarining keskin tushishi (30–50 foizgacha pasayishi) modelga kiritilgan [4].

To'lov qobiliyati bo'yicha makro stress-test natijalari shuni ko'rsatadiki, asosiy ssenariy ostida bank tizimi jami regulyativ kapitalining monandlilik koeffitsiyenti (CAR) o'zgarishsiz barqaror saqlanib, hatto 19,3 foizgacha oshishi, leveraj koeffitsiyenti esa 13,2 foizni tashkil etishi prognoz qilingan [5]. Bunday holat tizimning joriy ish rejimida hech qanday jiddiy tahdidlarsiz rivojlanishda davom etishini bildiradi. Biroq, agar yuqorida sanab o'tilgan tashqi va ichki shoklarni o'z ichiga olgan kompleks xatarli ssenariy yuzaga kelsa, bank tizimining jami regulyativ kapital yetariligi (CAR) uch yil ichida 8,4 foizgacha, leveraj koeffitsiyenti esa 5,3 foizgacha pasayishi modellashtirilgan [4]. Xatarli ssenariyda NPL ko'rsatkichining keskin o'sishi hisobiga yo'qotishlarni qoplash uchun bank tizimida to'lov qobiliyatini tiklash va qonunchilikdagi minimal talablarni (13 foiz) qondirish maqsadida mamlakat YalMining qariyb 3,8 foizi miqdorida qo'shimcha kapital qo'yilmalari talab etiladi [8]. Ayniqsa, ko'chmas mulk bozoridagi narxlarning 50 foizga pasayishi ssenariysi ipoteka kreditlari portfelining defolt ehtimolini birdaniga 27 foiz bandga oshirib, banklar kapital bazasiga eng sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi omil ekanligi aniqlandi [4], [5].

Likvidlilik bo'yicha makro stress-testlar banklarning ommaviy vahima yoki xatarli ssenariy ostida omonatchilar tomonidan mablag'larning keskin olib chiqib ketilishini qoplash qobiliyatini tekshiradi. Asosiy ssenariyda milliy va xorijiy valyutalardagi sof pul kirimining jami bank aktivlariga nisbati mos ravishda xavfsiz 20 foiz va 21 foizni tashkil etishi kutilmoqda [5]. Eng xatarli ssenariy ostida esa bu ko'rsatkich milliy valyuta qismi uchun 9 foizga, xorijiy valyuta uchun esa 14 foizga tushishi hisoblangan [4]. Tahlil shuni tasdiqladiki, garchi bu ko'rsatkichlar shok holatida sezilarli darajada pasaysa-da, barcha tizimli ahamiyatga molik yirik banklar qisqa muddatli majburiyatlarni to'liq qoplash uchun yetarli miqdorda yuqori likvidli aktivlar zaxirasiga ega.

Tadqiqot natijalari O'zbekiston tijorat banklari kapital va likvidlilik ko'rsatkichlari bo'yicha yuqori miqdoriy himoya qatlamiga ega ekanligini ko'rsatsa-da, sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash va xalqaro miqyosdagi o'zgarishlarga moslashish talab etiladi. Moliya bozorining globallasuvi, shuningdek, FSAP doirasida XVJ va Jahon banking bergan tavsiyalari O'zbekistonda bank nazoratini an'anaviy formal yondashuvdan tavakkalchilikka asoslangan mazmunli yondashuvga to'liq o'tkazish zaruratini kun tartibiga qo'ydi [6].

FSAP hisobotiga ko'ra, garchi O'zbekiston Markaziy banki 2019-yildagi yangi qonun qabul qilingandan so'ng qonunchilik va tartibga solish mustaqilligi borasida sezilarli yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, Bazel III arxitekturasi II va III ustunlari (Pillar 2 va Pillar 3), xususan, banklarning o'z ichki kapital monandligini baholash jarayoni (ICAAP) va bank guruhlarini bo'yicha konsolidatsiyalashgan nazorat (consolidated supervision) tizimlari hali to'liq va chuqur amaliyotga tatbiq etilmagan [9]. Shu bilan birga, xalqaro ekspertlar Markaziy bank qarorlarining adliya organlari tomonidan ro'yxatdan o'tkazilishi jarayonlari uning tezkor aralashuv imkoniyatlarini qisman cheklayotganini ham qayd etganlar [17].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston tijorat banklari moliyaviy barqarorligining joriy holati va rivojlanishning zamonaviy tendensiyalari tahlili shuni aniq ko'rsatadiki, mamlakat moliya tizimi tashqi noaniqliklar va yuqori ichki makroiqtisodiy dinamika sharoitida yetarli darajada moliyaviy barqarorlik va rezilyentlikni namoyon etmoqda. Tijorat banklarida kapital yetariligi va likvidlilik ko'rsatkichlarining xalqaro (Bazel) hamda milliy regulyativ me'yorlardan muntazam ravishda yuqori darajada saqlanib kelayotgani, shuningdek, rentabellikning tarixiy yuqori darajalarga — 1,24 milliard dollardan ortiq sof foydaga — yetgani moliya sektorining ehtimoliy iqtisodiy inqirozlarni bartaraf etish imkoniyatlari mustahkam va ishonchli ekanini anglatadi. Markaziy bank tomonidan tasdiqlangan ekonometrik modellar yordamida o'tkazilgan makro stress-testlar tizimning asosi barqaror ekanini, faqat defolt va uy-joy narxlarining keskin pasayishini o'z ichiga olgan favqulodda og'ir ssenariylardagina ayrim banklarda qo'shimcha rekapitalizatsiyaga ehtiyoj yuzaga kelishini ko'rsatdi.

Shu bilan birga, ijobiy ko'rsatkichlarga qaramay, bank tizimining barqarorligiga o'rta va uzoq muddatli istiqbolda ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ayrim fundamental zaifliklar va tarkibiy masalalar to'liq bartaraf etilmagan. Xususan:

Birinchidan, chakana kreditlarning jadal o'sishi. Mikroqarzarlar va avtokreditlar segmentidagi tez sur'atlar, ayniqsa ta'minotsiz kreditlarda muammoli kreditlar (NPL) ulushining ortib borishi bank menejmenti va regulyator tomonidan doimiy monitoringni, andarrayting jarayonlarini raqamlashtirishni hamda DSTI kabi makroprudensial cheklovchi vositalarni qat'iy saqlab qolishni obyektiv talab qiladi.

Ikkinchidan, tarkibiy masalalar va xususiylashtirish jarayonlari. Davlat ishtirokidagi yirik banklarning xususiylashtirish jarayonlari tashqi va ichki omillar ta'sirida 2030-yilgacha uzaytirilayotgani bank tizimidagi raqobat muhitini yaxshilash va operatsion transformatsiyani jadallashtirish masalalarini yanada dolzarb etmoqda.



Bank balanslarini avvalgi davrlarda shakllangan yirik kreditlardan bosqichma-bosqich sog'lomlashtirish hamda davlat korxonalarini moliyalashtirish funksiyasidan to'liq tijoriy modelga o'tish zarurati dolzarbligicha qolmoqda.

Uchinchidan, risklarga asoslangan nazoratga to'liq o'tish. Xalqaro Moliya sektorini baholash dasturi (FSAP) tavsiyalaridan kelib chiqib, Markaziy bankning 2025–2028-yillarga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi" ijrosini izchil va o'z vaqtida ta'minlash talab etiladi. Bunga, avvalo, IFRS 9 standartini qat'iy joriy etish, Bazel III arxitekturasining II va III ustunlarini (Pillar 2 va Pillar 3) banklarning amaliy biznes jarayonlariga chuqur singdirish hamda institutsional jihatdan mustaqil Moliyaviy barqarorlik kengashini faoliyatga kiritish kiradi. Bu choralar kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tizimli xatarlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston bank tizimi bugungi kunda miqdoriy ko'rsatkichlar jihatidan barqaror va daromadli, biroq sifat va institutsional jihatdan o'tish davrining muhim bosqichida turibdi. Tizimli moliyaviy xatarlarni yumshatish uchun qonunchilik bazasini muntazam takomillashtirish, banklarning ichki korporativ boshqaruvini shaffof va xalqaro standartlarga to'liq moslashtirish, raqamlashtirish va kiberxavfsizlikni kuchaytirish, shuningdek, iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq ESG xatarlarini prudensial nazorat mexanizmlariga bosqichma-bosqich integratsiya qilish tijorat banklarining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim omili bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida". 2020-yil 12-may. [Onlayn]. Mavjud: <https://lex.uz/uz/docs/-4811025?ONDATE=18.10.2021&ONDATE2=25.05.2024&action=compare>
2. KUN.UZ, "Bank tizimini isloh qilishning 5 yillik strategiyasi tasdiqlandi". [Onlayn]. Mavjud: <https://kun.uz/84749292#!>
3. "O'zbekiston bank tizimini isloh qilishning 5 yillik strategiyasi: oltita bank xususiylashtiriladi". [Onlayn]. Mavjud: <https://strategy.uz/index.php?news=944&lang=uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, "2025-yil I yarim yilligi uchun moliyaviy barqarorlik sharhi". 2025-yil 19-dekabr. [Onlayn]. Mavjud: <https://cbu.uz/uz/financial-stability/report/>
5. Central Bank of the Republic of Uzbekistan, "Financial Stability Report for the First Half of 2025". [Onlayn]. Mavjud: <https://cbu.uz/en/financial-stability/press-releases/3042756/>
6. International Monetary Fund, Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program – Detailed Assessment of Observance – Basel Core Principles for Effective Banking Supervision. Washington, D.C.: IMF, 2025. doi: 10.5089/9798229019811.002.
7. The Tashkent Times, "Uzbekistan aims to align its financial sector with Basel standards in 2026". [Onlayn]. Mavjud: <https://tashkenttimes.uz/finances/16622-uzbekistan-aims-to-align-its-financial-sector-with-basel-standards-in-2026>
8. International Monetary Fund, Monetary and Capital Markets Department, "Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program – Financial System Stability Assessment", IMF Staff Country Reports, vol. 2025, no. 145, p. 1, Jun. 2025. doi: 10.5089/9798229015103.002.
9. International Monetary Fund, "Republic of Uzbekistan Financial Sector Assessment Program Detailed Assessment of Observance — Basel Core Principles for Effective Banking Supervision", No. 25/227, Aug. 2025. [Onlayn]. Mavjud: <https://www.imf.org/-/media/files/publications/cr/2025/english/1uzbea2025004-source-pdf.pdf>
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, "Statistik byulleten". 2026-yil 3-fevral. [Onlayn]. Mavjud: <https://cbu.uz/uz/statistics/buleten/3385359/>
11. Central Bank of the Republic of Uzbekistan, "'Roadmap' aimed at further improving the bank regulation and supervision system in 2025–2028". [Onlayn]. Mavjud: <https://cbu.uz/en/financial-stability/press-releases/3049881/>
12. Central Bank of the Republic of Uzbekistan, "Domestic Systemically Important Banks for 2026". 2025-yil 4-noyabr. [Onlayn]. Mavjud: <https://cbu.uz/en/financial-stability/press-releases/2982192/>
13. Daryo.uz, "Uzbekistan's banking sector posts \$1.24bn profit in 2025". [Onlayn]. Mavjud: <https://daryo.uz/en/2026/02/09/uzbekistans-banking-sector-posts-124bn-profit-in-2025/>
14. Octobank, "Octobank Reports 2025 Results: Financial Growth, Innovation, and International Recognition". [Onlayn]. Mavjud: <https://octobank.uz/en/press-center/octobank-podvodit-itogi-2025-goda-finansovyy-rost-innovatsii-i-mezhdunarodnoe-priznanie>
15. Finko.uz, "2025 Overview: Uzbekistan Banks Record Historic Growth in Net Profit". [Onlayn]. Mavjud: <https://finko.uz/en/yangiliklar/overview-uzbekistan-banks-record-historic-growth-in-net-profit-1-en>
16. Central Bank of the Republic of Uzbekistan, "Profitability Indicators of Banking Sector". [Onlayn]. Mavjud: <https://cbu.uz/en/statistics/bankstats/3660647/>
17. Central Bank of the Republic of Uzbekistan, "The 'Roadmap' for Further Enhancing the Bank Regulation and Supervision System for 2025–2028 has been approved". [Onlayn]. Mavjud: https://cbu.uz/en/press_center/news/3049875/
18. Daryo.uz, "Uzbekistan delays state bank privatization to 2030 amid investor concerns". [Onlayn]. Mavjud: <https://daryo.uz/en/2026/02/24/uzbekistan-delays-state-bank-privatization-to-2030-amid-investor-concerns/>
19. SQB, "SQB Development Strategy for 2024–2026". [Onlayn]. Mavjud: <https://sqb.uz/upload/files2025/SQB%20strategy%20-%20ENG%20%D1%81%D0%B0%D0%B9%D1%82.pdf>
20. UZDAILY, "Uzbekistan Will Not Privatize State-Owned Banks in 2026". [Onlayn]. Mavjud: <https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistan-will-not-privatize-state-owned-banks-in-2026/>



21. Global Green Growth Institute, "O'zbekiston banklari mintaqaviy loyiha doirasida yashil bank yo'nalishi bo'yicha treningda qatnashdi". [Onlayn]. Mavjud: <https://gggi.org/uzbek-banks-receive-green-banking-training-under-a-regional-project/>
22. Global Green Growth Institute, "Uzbek Banks Receive Green Banking and ESG Integration Training". [Onlayn]. Mavjud: <https://gggi.org/uzbek-banks-receive-green-banking-and-esg-integration-training/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>